

Ona yurti - oltin beshiging

O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MILLIY KUTUB PALATASI  
INV. №

# TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2005-yil 17- 23-oktabr N:42 (66531)

## Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va  
axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi  
Xalq Ta'limi Vazirligi,  
«KAMOLAT» Yoshlar  
Ijtimoiy Harakati,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» Hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro  
xayriya jamg'armasi.

## SAHIFALARDA



### PAXTAZORDAN DARAK

2

- BET



### REPETITORNING NARXI QANCHA!

3

- BET

### «IQTISODIYOT SABOQLARI» TANLOVI YAKUNLANDI!

7

- BET

## Mening gazetam

## UNUTIB BO'LARKANMI?

Maktabimiz ona tili va adabiyot, ingliz tili, matematika fanlariga ixtisoslashgan bo'lib, unda 450 nafar o'quvchi ta'lim oladi. O'quvchilarga 40 nafar oliy toifali tajribali o'qituvchilar davlat ta'lim standartlariga ko'ra yangi pedagogik texnologiya asosida ta'lim berishadi. Shuning uchun ham shogirdlarimiz bir necha yillardan beri tarix, iqtisod, matematika, ingliz tili fanidan tuman, viloyat bosqichi olimpiadalarida muvaffaqiyatli qatnashadilar. O'quvchilarimizning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish maqsadida voleybol, futbol, stol tennis, badiiy gimnastika to'garaklari tashkil etilgan. Bu yil 10 yil bo'lgan maktabga qo'shimcha ikki qavatli 250 o'rinli yangi maktab binosi qurilishi avjida. Maktab hovlisini obodonlashtirishda, o'quvchilar tomonidan 1000 tup mevali va manzarali daraxt, 400 ta atirgul ko'chatlari o'tqazildi. Men maktabim bilan sizlarni yaqindan tanishtirar ekanman, komil insonni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari o'rni behad ekanligini ta'kidlamochim. Ayniqsa, "Tong yulduzi" o'quvchilarning jonidan sevgan gazetasi. Bu gazetaning ommaviyligi maktablarga tahririyat xodimlarining befarq emasligidir, deb bilaman. Bolalar gazetasida onalar ham

chiqadi, korxona rahbarlari-yu usta duradgorlar ham suhbat va muloqotga kirishadi. Chunki har biz o'zbek xalqi bolam deb yashaydi. Bolasi dono, sog'lom va ziyrak bo'lishi uchun o'ta maslahati, ona o'giti, olim-u hunarmandlar nasihati darkor. Yaqinda ijodkor qizimiz Dilafroz Bahridinovning "Yana bahor qaytdi yurtimga" she'riy to'plami nashr etilganda maktabimizda bayram bo'ldi, qolaversa, uning ilk she'rlari ham shu gazetada chop etilgan. O'quvchimiz Bahodir Rustamov, "Ziyo klubi malikasi" sharafiga ega bo'lgan Dilnoza Olimova, Umid Rustamov, Gavhar Boychayevaning respublika miqyosidagi tanlov ishtirokchisi bo'lishiga sabab "Tong yulduzi"dagi rang-barang tanlovlarda ishtirok etishidir.

Qadrli Umida opa! Yangi yilda sevimli gazetamizga maktabimizdagi har besh o'quvchining bittasi albatta obuna bo'ladi. Bunga ishonaman va va'da beraman. Axir inson o'z qadrdon do'sti va hamrohini unutib bo'larkanmi?

Nozigul SHARIPOVA.

Nurota shahridagi 1- ixtisoslashgan maktab  
direktori muovini.



## YANGI YILGACHA SHUNDUQ TURAR, BU UZUM

Salom aziz o'quvchi!

Yil oxirlab, yangi 2006-yil uchun obuna mavsumi boshlanib ketdi. Hatto bilimdon bolalarga ham kattalar «darsingni qil», deb eslatib turishmasa, o'z bilganlaricha o'tilgan mavzularni takrorlash-u uyga vazifalarni tayyorlashga vaqtida kirishmaydilar. Shuning uchun, kattalar obuna borasida jonbozlik ko'rsatishlari kerak. Axir mamlakatimiz siyosati, tinchlikparvar g'oyasini bolalarga osongina tushuntirib, ona yurti - oltin beshiging, deb tarbiyalaydigan otaxon

gazetamiz mamlakatda yagona va birinchidir. Ammo, 10 millionga yaqin o'quvchisiga ega yurtimizda yil boshida 60 mingga yaqin obunachilar bor edi... O'urli oqimlarga beriluvchan, xudbin va o'zbiarmon

bolalarni ko'rganda, gazetxon emas-da, deb o'yga tolishimiz shundan. Balki bir vaqtlardagidek o'z gazetasiga yozilishni har bir o'quvchi uchun majburiy qilib qo'yish kerakmikan?.. Chunki o'sha vaqtlarda direktordan tortib yetakchilargacha bu ishda

mas'ul va har hafta ma'lum tashkilotlar oldida hisob berilardi. Endi esa bolalar emas, balki bolalarni o'qitish, ularning bilim saviyasini

o'shish kerak bo'laturib, negadir maktablarda ustozlar obunasiga urg'u beriladi.

Aziz ustozlar! O'z shogirdlaringizni gazetxon qilishda faollik ko'rsatsangiz yomon bo'lmasdi. Chunki bu gazeta - bobo-yu momolarimiz o'qib ulg'aygan, mashhur olim-u alomalarimizni

kitobxonga aylantirgan gazetadir. Hatto

boshqotirma - yu krossvordlarni ham kichik hajmlarda chop etib, iloji boricha bolalar savodxonligini oshirishga, mumtoz va jahon adabiyotlari bilan tanishtirishga harakat qiladigan gazeta!

Diqqat! Diqqat!

Muzqaymog' - u shirinliklar uchun pul sarflab yurgan shogirdlarini bir yillik «Tong yulduzi»ga obuna qilishda eng ko'p ko'rsatkichga ega bo'lgan maktab jonkuyarlarining surati gazeta sahifalarida e'lon qilinadi.

Xatlaringizni kutamiz.

DIQQAT, OBUNA!!!



Odatda insonni jonivordan farqlovchi vositani zabon deyдилar. Balki bu bir jihatdan to'g'ridir. Ammo insonning insoniyligini belgilovchi fazilat oqibatdir. Zero, nuroniyalarimiz, «Ilohim oqibat ko'tarilmasin», deb bejiz duoga qo'lochmayдилar. Ayni shu ramazon oyidahr bir musulmon mehr-shafqatli bo'lmog'ilozim. Qariyalardan xabar olish, hol-ahvol so'rash, yetimlarning boshini silash yaxshi odatlarimizdan biri. Yunusobod tumanidagi «Chinor» mahallasi qo'shida ochilgan «Mehr-shafqat» klubi a'zolari bu an'analarni davom ettirmoqdalar. Mahalladagi boquvchisiz qolgan qariyalarning uyiga borib hollaridan xabar olishayapti. Bu xayrli ishlarda maktab o'quvchilari faol ishtirok etayotganliklari dilni quvontiradi. Uy yumushlarida qo'llaridan kelganicha yordam ko'rsatishayotgani uchun shu mahallada yashovchi Mastura aya, Cho'lpon ota, Polvon tog'a kabilar behad mamnun bo'lishmoqda.

Ramazon oyidagi muruvvat va mehriyl bo'yibo'lsin.

**Barno AZIMBOYEVA,**

**Yunusobod tumanidagi 260-maktabning II- «A» sinf o'quvchisi.**

## PAXTAZORDAN DARAK



Paxta terimiga kelganimizga ham ikki hafta bo'ldi.

Quyi Chirchiq tumanidagi jamoa xo'jaliklaridan biriga joylashdik.

Bu yil birinchi marta

terimga kelayotganimiz uchun paxta terish oson bo'lsa kerak, deb o'ylagandik. Katta sinfdagilar terimning tanobini tortib ko'rishgani uchun uncha xursand emasдилar. Xullas, ikki hafta ichida uyimizdagilarni sog'inib qoldik, ularni qo'msab, yig'lagan kunlarimiz ham bo'ldi. Ba'zi sinfdoshlarim kuniga 40-50 kg. dan paxta terib, katta sinf o'quvchilaridan qolishmayapti. 11- sinf o'quvchilarining ilg'or terimchilari Said Shukurxonov, Zafar Saydullayev va Nabi

Hayriddinovlar hammani lol qoldirib, paxta xirmoniga o'z hissalarini qo'shishda davom etmoqdalar. Ularning mehnatlari rag'batlantirilib, 2-oktabr kuni «Faxriy yorliq» va pul mukofotlari berildi. Maktabimiz paxta terimi bo'yicha maktablararo ikkinchi o'rinni egallagani uchun gilam va pul mukofoti bilan taqdirlandi. Paxta terimining gashti o'zgacha bo'larkan. Ba'zan kechalari terimda charchagan

kunim ekanligini, shuning uchun terimdan ozod qilinishimni so'radim. Ular rozi bo'ldilar. Shu kuni o'tirib she'r yozdim. Mening sharofatimga osh damlandi. Kechga tomon kam paxta terganlarni o'qituvchilar chaqirishdi. Ularning orasida men ham bor edim. Hozir rosa gap eshitsam kerak, deb o'ylagandim, ammo «tug'ilgan kunim» munosabati bilan hamma menga ikki kilogrammdan paxta terib qo'rganini e'lon qilishdi. Shu kuni «tergan» paxtam 150 kg. bo'libdi. Shundan keyin hammamiz uxlashga yotdik. Uxlashdan oldin qizlar bilan bugungi hiylamizni o'ylab rosa kulishdik. Ammo ertasi kuni meni fosh qilishdi. Bundan hamma xafa bo'lsa kerak, deb, o'ylagandim, ammo ular: — Sening bahonangda mazza qildik-da, - deb aksincha, xursand bo'lishdi. Nima bo'lganda ham, ozmi-ko'pmi paxta terib, yurtimiz xirmoniga hissa qo'shayotganimizdan juda xursandmiz.

**Lola TURDIBOYEVA,**

**Parkent tumanidagi**

**18-o'rta maktab o'quvchisi.**

Paxta dalasida ilhomim kelib, she'r ham yozdim. Marhamat, o'qib ko'ring:

Saharlab paxta zorga  
Tizilib yo'l olamiz.  
Terib oppoq paxtani,  
Etaklarga solamiz.

Tezroq to'lsa etaklar,  
Yuzlar yorug' o'sha dam.  
Paxta boylik, paxta shon,  
Ko'ngil forug' armondan.


qizlarning yuzlari lab bo'yoqlari-yu qozon qoralari bilan bejalib qolishini aytmaymizmi... Bir kuni qizlar bilan mening soxta tug'ilgan kunimni nishonlamoqchi bo'ldik. Men ustozimning oldilariga borib, bugun tug'ilgan

## XAZONLAR...

Har faslning o'ziga yarasha gashti bor. Tabiatni asrasak, unga mehr qo'ysak, u ham bizni o'z ne'matlaridan bahramand etadi. Maktabdan Amir Temur xiyoboni bo'ylab qaytaman. Bugun ham Xorazm ko'chasidagi katta maydonda yoqib tashlangan xazon uyumlari yotardi. Atrofni qoplagan tutun zahridan ko'z ochib bo'lmadi. Poytaxtning qoq o'rtasidagi bu manzara meni dahshatga soldi. To'kilgan barglarni yoqmasdan yerga ko'mib qo'yilsa u o'g'it bo'ladi-ku. O'chirilmay chala tashlab ketilgan tamakilardan chiqayotgan bunday yong'inlar havoni zaharlaydi. Bu havodan nafaqat chekuvchilarning o'zlari, ularning yaqinlari-yu farzandlari ham nafas olishadi-ku? Yoqilgan xazonlar o'rni qorayib olamimizni xunuklashtirishi-chi. Nahotki biz atrofimizdagi tabiatga shu qadar befarq, bee'tibor bo'lsak?

**Nazokat AHMEDOVA,**

**Shayxontohur tumanidagi Alisher Navoiy nomli 40-maktabning 9- «D» sinf o'quvchisi**



## PUL TO'PLAB OLINGAN TO'P

Poytaxtdagi 248- maktabning 2- sinf o'quvchisi Sardorbek futbol o'ynashni juda yaxshi ko'radi. Barcha fanlardan baholari a'lo. Ayniqsa, jismoniy tarbiya darsiga mehri bo'lakcha.

Tinib- tinchimas Sardorbekning jismoniy tarbiya darsiga qay tarzda tayyorlanishini yaxshisi uning onasi Ma'mura opadan eshita qolaylik:

— To'g'risi, jismoniy tarbiya darsi bo'ladigan kuni bolam tuzukroq uxlo olmay chiqadi. Yotish oldidan sumkasiga sport kiyimlarini va futbol to'pini joylaydi. Bir uxlab turib, yana: “Koptogimni soldimmi?” Yarim tunda turib, chiroqni yoqib, sumkasida turgan koptogini yana bir ko'zdan kechirib ham qo'yadi...

Ma'mura opaning gaplariga qiziqib qolib, demak bu maktabda jismoniy tarbiya darsi juda qiziqarli o'tilarkan-da, degan xayolda Sarborbek o'qiydigan maktab sari yo'l oldim.

Maktabning sport maydonchasining atrofi temir panjaralar bilan o'ralgan. Bu yaxshi albatta. Ammo berilib futbol o'ynayotgan bolakaylarning ust-boshlariga qarab bo'lmaydi, hammayoqlari chang-tuproq. Chunki ular tuproqli maydonda to'p surishyapti-da.

So'ngra, maktabning sport zalini tomosha qilgim keldi. Sport zalining to'liq ta'mirdan chiqqanligi meni rosa quvontirdi. Ammo sport zaliga kirib kelayotgan 6- sinf o'quvchilarining sumkasida ham futbol to'pi borligini ko'rib ajablandim:

— Nega futbol to'pi ko'tarib yuribsizlar?

— Sinfimiz bilan pul yig'ib olganimiz-da, - deydi Isroil degan bola...

Sardorjonning to'pim esimdan chiqmasin, deya xavotirlanishi sababini endi tushundim.



Maktabda ikkinchi darsga chorlovchi qo'ng'iroq chalindi. O'quvchilar sinflariga kirib ketishgach, maktab hovlisi bo'shadi- qoldi. Kim bilan suhbatlashishni bilolmay ikkinchi qavatga ko'tarilganimda maktab kutubxonasining ochiq ekanligini ko'rib, quvonib ketdim. Keksa kutubxonachi Farida opa Oxunova xonani shamollatish bilan ovora ekanlar. Kutubxona uchun bitta sinf xonasi ajratilgan bo'lib, kichikroq bo'lsa-da, shinamgina edi. O'rfa xil gullar bilan bezatilgan.

— Shinamlikka shinam-u, ammo, - deya so'z boshladi kutubxonachi Farida opa nigohimdagi mamnunlikni ko'rib.

— 2004-2005 - yillar mobaynida lotin alifbosidagi badiiy kitoblarni o'lganimiz yo'q-da. Bolalar har kuni yangi kitob so'rab kelishadi.

Qayerga qilsak, topinglar, javobni Shu payt kirib kelishdi. O'zlarini 6- sinf Bashirov va Behzod Rajabov deb suhbatga tortdim:

— Qanday kitoblarni sevib o'qiysizlar? - so'radim ulardan.

Narimon, ertak kitoblarini ko'p o'qiyman, desa, Behzod, men kutubxonaga kirmayman, deya to'g'risini aytdi-qo'ydi...

— 15 yildan beri kutubxonada ishlayman. Bolalarning yildan- yil kitobga mehri yo'qolib borayotganidan tashvishdaman. Buning sababi, kutubxonalarga yangi kitoblarning kelmasligi, kutubxonalarning talabga javob bermasligida deb o'ylaman.

Ammo, kitobning turgan-bitgani xazina-ku. Menimcha, u hech qachon eskirmaydi.

O'quvchining bugun o'qigan kitobi uning uchun yangi bo'lib qolishi kerak, deb o'ylayman. Yangi kitob yo'q deyish - bu kitob o'qimaslik uchun bir bahona, xolos.

Men kuyunchak kutubxonachining fikrlariga qo'shildim.

Ma'mura MADRAHIMOVA.



## ESKIRMAYDIGAN

## KITOB

murojaat homiy degan olamiz.

kutubxonaga bir to'da bolalar o'quvchilari Narimon tanishtirgan bolalarni

Maktab ta'limi rivojlanishiga keyingi paytlarda juda katta e'tibor berilayotganidan do'ppimizni osmonga otsak arziydi. Ammo shunday yaxshi ishlarga soya solayotgan ayrim harakatlar ham bo'layotgani sir emas.

Ayting-chi, maktabga o'quvchi nima uchun boradi? -O'qish uchun albatta, deysizmi? Lekin ertalabdan ularning maktab atrofi, ko'chalarni



supurayotganlarini o'zingiz bir ko'rib keling. S a b a b i, «Tekshirishga kelishar emish»... Qiziq,

keladigan taftishchi dars soatlari qanday o'tilayotganini emas, balki yo'lka chetlarining tozaligini tekshirib ketarkan-da?

-8-sinfga chiqqan

qizim shu yilning 2-sentabr kuni tushdan oshganda uyga kirib keldi. Qarasam, xuddi qurilishdan kelayotgandek yangigina tuflisi, ohorlik qora yubkasi chang-chung. So'rasam, maktab hovlisida o't yuldik. Ustozimiz tozalab bo'lmagunimizcha javob bermadilar, - deydi shu tumandagi maktabda farzandi o'qiydigan ona...

-Nima, bir sinf bola, hammangiz qirq nafar bo'lib o't yulib, supurish bilan shug'ullandinglarmi?

-Ey, o'g'il bolalar qochvordi. Bizlar ustoz urishmasinlar deb majbur bo'ldik, -deydi qizim.

Mana, sizga yangi o'quv yilining birinchi «darsi!...»

Chindan ham poytaxt maktablarida o'quvchilarning dars vaqtlaridan «unumli» foydalanib tozalik ishlariga jalb etish ancha ommaviy tus olibdi. Hatto maktab hovlisi-yu atrofi qolib,

nariroqdagi hududlarga ham, k a t t a ko'chalarga olib chiqib supurtirish holatlarini kuzatdim.

Hamza tumanidagi maktab o'quvchilari hatto «betonka»ni supurib kelishmoqda... Qiziq, o'quvchilarda norozilik uyg'otib, darsdan majburan olib chiqib ketib, bunday ishlar bilan «shug'ullantirish»ni kim o'ylab chiqdi ekan-a?

Ko'pchilik ota-ona-yu o'quvchilar sinflarni, maktab koridorini «tozalash» uchun alohida pul yig'ishlarga «ko'nikib» ham qolishgandi. Endi ko'chalar tozaligi uchun «O b o d o n l a s h t i r i s h» boshqarmasiga «soliq» to'lashlari kerakmi?!..

Bolalari yuqori sinfga chiqqan ota-onalarning maktabdagi darslardan ko'ngillari to'lmay «repetitor» olib o'qitishayotganini hamma biladi. Qo'shimcha bilim olish, maxsus fanlardan tayyorgarlik yaxshi albatta. Lekin ular qo'yayotgan narxlar hamma ota-onaning «cho'ntagiga» to'g'ri keladimi? Gap shunda...

Jahon tillari universitetiga imtiyozli qabul qilingan 1-bosqich talabasi andijonlik Gulhayo Arslonova bilan shu masalada suhbatlashganimda, «T o s h k e n t d a g i o'qituvchilarning aytayotgan narxi rosa baland ekan-a..

Andijonidagi maktabda ham ingliz tili o'qituvchilari juda kuchli, ko'plari chet elda malaka oshirib kelishgan. Lekin ular bir oyda oladigan repetitorlik pullari bu yerda ikki, uch hajmiga to'g'ri kelayapti», dedi hayratlanib. Gulhayoning aytishicha, Andijonda «Taraqqiyot» markazi bo'lib, u yerda kompyuterlardan va ingliz tilidagi adabiyotlardan iborat kutubxonalardan foydalanishni viloyat hokimi bepul qilib qo'yibdi.

Ko'pgina viloyatlarimizda, bolalar va o'smirlarning til o'rganish, kompyuter savodxonligini oshirish maxsus markazlari arzonlashtirilgan narxlarda yoki bepul olib boriladi.

Lekin, nega poytaxtda qo'shimcha o'qish, o'rganish bunchalik qimmat-a?! bolasi bor, maoshga qaysi bir farzandini yoki qo'shimcha o'qitish har dars uchun ikki ming ming so'mdan ajrata yaxshi o'qish, yaxshi pul da?... O'ylab ko'raylik, to'rtta yashaydigan ota-onalar markazlarga yuborib uchun repetitorga yoki ikki yarim oladi? Eh-h.. talab qilar ekan-



## KO'CHA SUPURAYOTGAN BOLALAR

### «KUNDALIK DAFTAR»NI FAQAT MAKTABDAN OLISH KERAK...MI?

Ha, bu sarlavhani o'qib ajablanayapsizmi? Bu holatni bilgan o'quvchi, ota-onalar gap nimada ekanini darrov tushunishdi...

Yunusobod tumanidagi maktablarda o'quv yili boshidan o'zlari «Kundalik daftar» sotishni boshlashibdi. «Maktab bozori» qilinganda tabiiyki hamma ota-ona ham boshqa o'quv qurollari qatorida «Kundalik daftar»ni ham o'arid qilishgan. Endi yana o'quvchi bolalari «Maktabdagi kundalikni tutish kerak ekan!» deb o'arid qilishlaridan norozi bo'lishadi-da..

«Mayli, 300, 350 so'm qayerlarda qolib ketmaydi. Shunga shuncha gapmi?» deydiqanlar ham topilishi turgan gap. Lekin, nima uchun o'quv yili yakunlanayotgan paytda «Kundalik daftar»ni har qanaqasini olib yurmanglar, o'zimizdan yangi o'quv yilida sotib olishingiz mumkin, deb aytilmadi?!

### MAKTABDAN MAKTABNING FARQI BORMI?

Kichkina sinf o'quvchilari ham mushtdekkina bo'lib uyali telefon ko'tarib darsga kelishlariga nima deysiz?

Bilaman, hozir o'quvchilar o'rtasida «sotka» ko'tarish urf bo'lgan. Ayrim o'ziga «juda to'q» ota-onalar «sotka»li bolalarini maktabda «ko'z-ko'zlashayotgani» odamning ensasini qotiradi.

Ayrim maktablarda dars boshlashdan avval o'qituvchilar o'quvchilaridan «sotka»larni yig'ib olib, so'ngra mavzuni boshlashar ekan...

Bir bolaning «sotka»sida jamoat joyida shang'illab o'rtog'i bilan gaplashayotganini eshitib qoldim... Aftidan yangi maktabga o'tgan va sinfdoshlariga «o'rgana olmagan»...

-Voy, og'ayni, bilasanmi, bu sinfda sal tuzukrog'i ham yo'q. Hammasi quruq ekan... Maktabdayam bittasida sotka ko'rmadim...

Juda mahmadonalik qilib yubormadimmi? Bu fikr-mulohazalarimga siz nima deysiz? Keling, maktabda uchrayotgan juda mayda bo'lib ko'rinsa-da, ta'limga halal berayotgan bunday muammolarni birgalikda bartaraf etaylik. Men-ku bu safar maktab nomlarini aniq ko'rsatmadim. Keyingi safar sizlarning aniq-tiniq dalillaringiz asosida sahifamizni bezaymiz. Bu «bezak»lar albatta yaxshilikka xizmat qiladi.

Sahifa uchun mas'ul: Saidaxon ZOKIROVA.

Bu savolni berib qo'yib, qaysidir maktabni qoralamoqchi emasman. To'g'ri, maktablarda fan o'qituvchilari yetishmaydi. Ammo, «dars o'tish»ga kirganlarining hammalari ham to'liq «dars o'tishayapti!..» deb ayta olmayman.

Aziz ota-onajonlar! Biror marta bolangiz o'qiyotgan maktabga chiqib, darslarini kuzatishni so'rganmisiz?..

Hurmatli pedagogimiz Jo'ra G'aniyevich Yo'ldoshevning aytishlaricha, yapon onalari, bolalari betob bo'lib maktabiga bora olmasa, o'zlari uning o'rniga o'qib kelisharkan va bolalariga o'tilgan mavzularni tushuntirib berishar ekan...

Ha, mayli, xayolingizni «chet el» bilan band qilmay-da, o'zimizdan gapiray. «Sinf rahbari»ning darsi ayniqsa «to'liq» o'tilmasligini bilsangiz kerak. Tashkiliy ishlari ko'p

### «DARS»INGIZ QANDAY O'TAYAPTI?...

uning. Dars paytida «sinf fondi», «maktab fondi»ga pul yig'ish kerak... Chunki ulardan ham «talab qilinar ekan»...

Uchtepa tumanidagi maktabda farzandi 9-sinfda o'qiydigan bir ona parda uchun bir yarim ming so'm olib borolmagan o'g'lini sinf rahbari turg'azib qo'yibdi, deb dili og'rib aytdi...

Uni-buni qo'ya turing-u, «Hozir mana bu mavzuni o'qib turinglar, meni ilmiy mudir chaqirtiribdi...»,deb ayrim o'qituvchilar chiqib ketib, dars yarimlaganda kirib kelishlari ham o'quvchilarga sir emas. Yoki o'quvchilarning xatti-harakati, kiyinishi haqida «ma'ruza» tinglab, dars soatlari o'tib ketish hollarini ham kuzatdim...

Mana birgina misol... Shu yilning 8-oktabr kuni «Paxtakor» stadionida Jahon chempionatining saralash o'yinlari o'tkazildi...

Futbol sabab, maktablarning

yuqori sinflarida o'qiyotgan o'g'il bolalarga «Tilxat» yozdirish «darsi» o'tkazildi, va hokazolar... Albatta tanaffus vaqtida emas, dars soatlari hisobidan.



# O'ZBEK TILIM - JONU DILIM

21-Oktabr  
o'zbek  
tiliga Davlat  
maqomi  
berilgan  
kun

Inson zoti borki, boqiy umr ko'rsam, deya niyat qiladi. Bu niyatning ijobati esa har kimning o'ziga bog'liq. Tili-zabonini shirin qilib, xushmuomalalik bilan hayot kechirgan, xushchaqchaq insonlarning uzoq umr ko'rishlari hech kimga sir emas. Bu borada tabobat ahli juda ko'p maslahatlar bergan. Ibn Sino "Tib qonunlari" kitobida ham bemorlarni so'z orqali davolashning hosiyatlarini sanab o'tadi.

Darhaqiqat, so'z muomalaning shunday mahsuliki, u odamlarning xulq-atvori va salomatligiga ham ta'sir eta oladi. Agar bu so'z aniq, ravon va sof bo'lsa, nur ustiga a'lo nur. O'zbek tilimiz shunchalar boyki, bu tilda so'zlashning o'zi bir baxt. Afsuski, bu baxtning qadriga hammamiz ham yetavermaymiz. Ayrim yoshlarimizning so'zlariga quloq tutsangiz, boy va jozibador tilimizni shu darajada buzib, lug'atidagi so'zlarni tilda anglolmay qolasiz.

jargon hamda boshqa millat qo'shib gapirishlaridan ularning qaysi so'zlashayotganlarini ham Men O'zbekiston Jahon tillari universitetining fransuz filologiyasi fakultetida tahsil olmoqdaman. Bizga tahsil berayotgan u s t o z - murabbiylarimizning nutqi shunchalar ravon, jozibadorki, tinglab to'yamaysan kishi. Ularning o'z ona tillarini shu darajada sevishlari, ardoqlashlarini ko'rib, o'z ona tilimizga bo'lgan mehrim yanada ortdi. Davlat tilimiz nufuzini yanada oshirishga munosib hissa qo'shib kelayotgan xalq o'qituvchisi Dilorom opa Vahobova, Zumrad opa, Lolaxon opa Shukurova kabi mehridaryo ustozlarimdan puxta bilim olish euzu niyatim. Bu dargohni tamomlab, hozirda yurtimizda, shuningdek, yer yuzidagi ko'pgina davlatlarning diplomatik korpuslarida astoydil mehnat qilib, davlatlar orasidagi do'stlik va birodarlikni ta'minlashdek xayrli vazifalarni bajarib kelayotgan aka va opalarim izidan bormoqchiman.

Fursatdan foydalanib, barcha ustozlarimni, tengdoshlarimni til bayrami - faxr va g'urur bayramimiz bilan chin dildan muborakbod etaman.

**Malika RAHMONBEKOVA,**  
Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori.

Til - millat  
ko'zgusi

## NAVOIYNI O'QIB, UQDIM

Yaqinda men Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqidagi bir kitobni o'qib chiqdim. Navoiyning til haqidagi turli hikmatli so'zlarini o'qib, yon daftarchamga ko'chirib ham oldim. Bu yil o'zbek tiliga Davlat maqomi berilganiga 16 yil to'ladi. Biz har yili bu sanani munosib nishonlaymiz. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarimiz Dilshoda opa Toshmuhammedova, Chaman opa Qo'chqorova boshchiligidagi maktabimizda turli tadbirlar va kechalar uyushtiramiz. Oila millat ko'zgusi, deyishadi. Shunday ekan, ona tilimizni puxta o'rganib, ba'zi "zamonaviy" qizlar kabi ruscha-o'zbekcha so'zlarni qorishitirib tashlamasligimiz, uni boshqa tillar bilan uyg'unlashtirmasdan gapira olishimiz darkor. O'z tilimizni boyitish, ma'naviyatimizni yuksaltirish uchun esa ko'p kitob o'qib, uning mazmun-mohiyatini anglab, tengdoshlarimizga ham gapirib berishim kerak.

**Diyoira TO'RAYEVA,**  
Yunusobod tumanidagi 143-maktabining  
9-sinf o'quvchisi.

## BAHO BERISH SIZDAN

Salom "Tong yulduzi" tahririyati xodimlari!

Men mana 8 yildirki, Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi Muhammad Yusuf nomli 1 - aniq fanlarga ixtisoslashgan iqtidorli bolalar maktabi o'quvchilariga ona tili va adabiyot fanidan saboq berib kelyapman. Nomidan ham ko'rinib turganidek, iqtidorli bolalar tahsil oladigan maktabimiz o'quvchilari xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf nomiga munosib bo'lish uchun astoydil harakat qiladilar. Ayniqsa, men boshqarib kelayotgan "Yosh ijodkorlar" to'garagi a'zolarining shoir ijodiga qiziqishlari katta. Lug'atining rang-barangligidan, so'z o'yinlari, qochirimlardan mohirona foydalana olishidan hayratlanishadi. Men ularga ham ustoz, ham to'garak rahbari sifatida o'zbek tilimizning naqadar boyligi, jozibadorligi haqida ko'p gapiraman. Topshiriqlar berib, she'riy mashqlarining yutuq va kamchiliklarini ko'rsataman. Shu tariqa ular qalbida ham she'riyatga, ham ona tilimizga mehr uyg'otishga intilayapman.

Quyida to'garagimiz a'zolari she'rlaridan namunalar yuborayapman. O'g'itlarimning nechog'lik kor qilganiga she'rlarini o'qib, o'zingiz baho bering. Lozim topganingizni gazeta sahifalarida chop etsangiz, shogirdlarimni yanada ilhomlantirgan bo'lardingiz.

**Hurmat bilan Halima SAMANOVA,**  
Xalq ta'limi a'lochisi.

### QUOLUG' KUN

Oppoq ro'mol tashlab aziz boshingga,  
Farzandlar talpinmish bu kun qoshingga.  
Yeru osmon guvoh qutlug' yoshingga,  
Ayyoming muborak, ey aziz ona!  
Boshing uzra hatto quyosh parvona.

Soching tolasidan bir dona olib,  
Dunyo g'amlarini jam qilib bog'la.  
G'amning barchasini bir yerga surib,  
Shod-hurram yashashga o'zingni chog'la.

Qalbing qiynayotgan amallaringni,  
Bittasin qoldirma, hammasin yulgin.  
Farzandlar kamolin ko'rib bahra ol,  
Bugun qah-qah urib, yurakdan kulgin.

Ona, meni duo qil qadoq qo'ling-la,  
Oo'siqlar bo'lmasin yurgan yo'lmda.  
Ilm olmoq uchun kirishdim, mana,  
Kelajak kaliti endi qo'lmda.

**Orifjon XOLBEKOV,**  
9 - sinf o'quvchisi.

### OYMOMO

Oymomojon, oymomo,  
Nur, ziyoga boy momo.  
Zulmatni yoritasan,  
Qo'rquvni aritasan.

**Abrorjon BOYQO'LOV,**  
6 - sinf o'quvchisi.

### ONA

Dunyoda eng mehribon,  
Ham do'st-u ham qadrdon,  
Orom olsang - soyabon,  
Toliqsang bo'lar darmon.

Gar yig'lasang xun bo'lar,  
Kulsang quvonchga to'lar,  
Tilaging bajo qilar,  
Bu munis ona bo'lar.

**Maqsud MAHMUDOV,**  
6 - sinf o'quvchisi.

**Kishi o'rtacha 70 yil umr ko'rsa,**  
shundan 13 yilini gaplashishga  
sarf qilar ekan

### AYLAMANG

Do'stlar, charxi falak, dunyoda onani xor  
aylamang,  
Bag'ri osmon, mehri daryo ul zotni zor  
aylamang.

Kechalari mijja qoqmay qoshingizda parvona,  
Joni sizga baxshida onani intizor aylamang.

Yurak bag'ri xun bo'lsa-da, mehr bilan alla  
aytgan,  
Vujudingiz til to'rini ul onaga tor aylamang.

Siz-la bag'ri butun bo'lmish ul mo'tabar  
validani,  
Baxt-saodat muhabbatning otashida zor  
aylamang.

Onaizorni ardoqlang, ko'nglini xushnud qilingiz,  
Ular madhin kuylagan Ra'noni abgor aylamang.  
**Ra'no SAIDOVA,**  
9 - sinf o'quvchisi.

## O'ZBEK BO'LA TURIB, O'Z TILINI BILMASA

Sarlavhani o'qib, bunaqalar ko'p, deya yotgandiriz? Fikringizga qo'shilaman. Alam qiladigani, bundaylar o'z ona tillarida so'zlashni bilmasliklaridan uyalish u yoqda tursin, faxrlanib yurishadi. Balki ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lganim uchun ham bu holat meni ko'proq tashvishga solsa kerak-da.

Yaqinda bo'lib o'tgan bir voqea hammasidan ham o'tib tushdi. Sportning allaqaysi turi bo'yicha chet elda bo'lib o'tgan nufuzli musobaqada qatnashib, faxrli o'rinlardan birini olib qaytgan bir o'smir haqida eshitib qoldim. U bilan dildan suhbatlashgim, chet el taassurotlari bilan o'rtoqlashgim, qolaversa, tengdoshlariga o'rnak qilib ko'rsatish uchun u haqida maqola yozgim keldi. Manzilini olib, ancha qidirib, bazo'r topib bordim. Qo'ng'iroqni bossam, bo'lajak qahramonimning o'zi eshikni ochdi. "Assalomu alaykum" desam, salomimga rus tilida alik oldi. Holahvol so'rasam ham, yana shu tilda javob berdi. Ajablaniib, onasini chaqirishini iltimos qildim. Buni qarangki, ona ham

o'zbek tilini yaxshi bilmas ekan. Maqsadimni anglagach, rus tilida gaplashishga qiynalsangiz, qo'shningimning o'g'lini chaqiraman, tarjima qilib turadi, desa bo'ladingi?

Bu qanday hol? O'zbek bo'la turib, tilmoch orqali tillashsak-a? Xo'rligim kelib ketdi. O'smirdan emas, o'qimishli, ziyoli ko'ringan, yoshi ham elliklarni qoralab qolgan haligi ayoldan xafa bo'lib ketdim. Tilimizni hurmat qilmasa ham, hech bo'lmaganda qonunimizni hurmat qilsa bo'larmidi?! Axir o'zbek tiliga davlat maqomi berilganiga ham 16 yil bo'lyapti. Hafsalam pir bo'lib, suhbatlashgim ham, maqola yozgim ham kelmay qoldi. Xayr-xo'shni nasiya qilib, tezda ortimga qaytdim. Essiz, o'zbek degan nom, essiz, behuda ketgan vaqtim.

**Nasiba TURDIQULOVA,**  
Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi 322 - maktab  
o'qituvchisi.

## ЯХШИ КЎРАМАН — СЕВАМАН ДЕГАНИМИ?

(МУСИҚАЛИ ҲАНГОМА)

**Иштирок этувчилар:** Юлдуз, Севара, Умида, Шухрат, Бехзод, Отабек — 6-синф ўқувчилари.  
(Саҳнада Юлдуз пайдо бўлади. У жуда хурсанд. Қўлидаги чиройли безакли табрик қоғозини ўқийди).

**ЮЛДУЗ:** —“Синфдошим Юлдуз! Мен сени 8 - Март байрами билан чин дилдан табриклайман. Сенга узоқ-умр, сиҳат-саломатлик, бахт-саодат тилайман. Сени жуда яхши кўраман. Хурмат билан синфдошим Шухрат”.

Вуй, қандай яхши-я!  
(Умида кириб келади).

**УМИДА:** — Ҳа, бунча оғзинг қулоғингда бўлмаса?  
(Юлдуз табрик қоғозини кўрсатади).

—Вуй, вот это да! Намунча чиройли? Ну-ка покажи, кимдан экан?

**ЮЛДУЗ:** —Пожалуйста, кўришинг мумкин. Менинг сендан беркитадиган секретим йўқ.  
(Умида ўқийди).

**ЮЛДУЗ:** —Ана кўрдингми, а ты всегда не верила.

**УМИДА:** —Ну и что? Ҳозирам ишонмайман.

**ЮЛДУЗ:** —Уми, ты что, томинг кетганми? Ахир мана, яхши кўраман, деб аниқ қилиб ёзиб қўйибди-ку. Неужели не понимаешь?

**УМИДА:** —Жуда яхши пониам, менимас, ўша Шухратингнинг томи кетиб қолганга ўхшайди. Мана, мен ҳам бугун ундан шундай подарка олдим. И получше чем у тебя. Менга ҳам худди шундай сўзларни ёзибди...  
(“Миллион, миллион, миллион алых роз” кўшигини хиргойи қилганча Севара кириб келади).

**СЕВАРА:** —Қизла, короче гап бундай. Бундан буён икковинг ҳам Шухрат ҳақидаги хомхаёлларингни, как говорится, выкиньте из головы!

**ЮЛДУЗ:** —Нима, это почему же?

**СЕВАРА:** —Шухрат мени байрам билан табриклаб, шунақа зўр подарка бердики, кўрсаларинг оғзиларинг очилиб қолади. (Совгани кўрсатади). Яна, мени яхши кўришини ҳам ёзибди.

**УМИДА:** —Қара Юлдуз, бунгаям худди шундай деб ёзибди.

**ЮЛДУЗ:** —Вой ярамас! Ҳаммамизни жинни қилмоқчи бўлибди-да. (Қизлар Севарага ўз совгаларини кўрсатишади).

**СЕВАРА:** — Идиот, ҳали унга кўрсатиб қўяман, бабник...

(Шу пайт синфга Шухрат кириб келади).

**ҚИЗЛАР:** —(Совгани кўрсатиб бараварига). Шухрат, мана буни қандай тушуниш керак? Шундай қилиб, қай биримизни яхши кўрасан?

**ШУХРАТ:** —Ҳаммангизни.

**Қизлар жаҳллари чиқиб,** «Яхши кўриш деганда нимани тушунишни биласанми ўзи?», дея Шухратни савалай кетишади.

Шу пайт синфда пайдо бўлган Отабек ва Бехзод унинг жонига оро киради.

**ОТАБЕК:** —Тўхтанглар, тўхтанглар, нима гап ўзи?

**СЕВАРА:** —Оказывается, он всех нас любит.

**ШУХРАТ:** —Хой, хой, не любит, а хорошо видит, дегин Севар. Нима, синфдошларимни яхши кўришга ҳам ҳаққим йўқми?

Синфда қаттиқ кулгу кўтарилади...

**МУАЛЛИФ:** —Азиз болажонлар, сизлар билмайсизларми, ўзга тиллар у ёқда турсин, ўз тилини ҳам яхши билмайдиган бу олифталар кимнинг устидан кулишаяпти? Сизларни билмадим-у, лекин мен турли тилларни қориштириб сўзлашни она тилимизга нисбатан беҳурматлик, деб биламан. Хўш, бу борада сизнинг фикрингиз қандай?

**Мухлиса ФАЙЗ,**  
Ижтимоий йўналишдаги республика махсус  
гимназиясининг 9 - “А” синф ўқувчиси.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

– Vooyyy!.. - kinnachi xola dumalab-sumalab o'rtidan turdi. Ko'zlarining paxtasi chiqib, dedi:

– Bunaqasi bo'magan bolam, ha... hecham bo'magan, sen yetimchani bir xudo saqlabdi. Yomon cho'chiding-a?

Qushdek yengil tortib, uyga qaytdim. Ko'ktoyni eslayman. Kecha u kelib qolmaganida bormi, jinlar meni xoynahoy Bo'zsuv taraflarga olib ketardi. Bo'zsuvni ko'zimga kichkinagina ariq qilib ko'rsatardi-da, «qani xatla, xatlab o't», derdi. Shu bilan tamom edi... Ko'ktoy o'zi boshqacha-da!

Lekin Ko'ktoy keyingi paytlarda kechalari osmonga qarab uliydigan odat chiqardi. Ayniqsa, oy to'lgan kechalari u avjiga chiqadi. Bunday kunlarda qishloq oy nurida judayam chiroyli ko'rinadi. Balandqo'rg'on, Pastqo'rg'on, Kenjaqo'rg'on hammasi kunduzgidek olamga o'zini ko'z-ko'z qiladi. Hatto Bo'zsuvning narigi tomonidagi «To'qsonbir» degan joylar ham yarqirab ko'zga tashlanadi. Faqat Bo'zsuv va uning ikki chekkasidagi jarliklar ustida qoramtir bir sharpa suzib yurganga o'xshaydi. Ko'ktoyni osmonga qarab ulishi bu chiroyli olamni yanayam sirli, g'amgin qilib yuboradi. Ko'ktoy Balandqo'rg'onida yashaydi. Shungami ovozi uzoq-yaqinlarga ketadi. Uning tinimsiz ulishini birovlar yaxshilikka yo'yar - yurt boshiga tushadigan balo-qazolarni daf qiladi deyishar, boshqalar hosiysiz - balo-qazoni chaqiradi, nima balo, urush boshqatdan boshlanib qoladimi, deyishardi. Biz Ko'ktoy uliganda yaqindan borib tomosha qilardik. Ko'ktoy cho'nqaygancha tumshug'ini oyga cho'zib ulirdi. Uliganda tumshug'i bo'yniga qo'shib, allaqanday qo'rqinchi tus olardi. Xayolimda Ko'ktoy oymoma ichidagi obkash ko'targan odamni taniydigandek, ular ilgari birga-birga yurishgan-u, nimadir bo'lib, egasi Oyga chiqib, Ko'ktoy yerda qolib ketganga o'xshardi. «Balandqo'rg'on» kunchiqar tarafdagi bo'lib, quyosh ham, oy ham shu tarafdin chiqib kelardi. Oymoma to'lib, dum-dumaloq bo'lgan paytlarda, shundoqqina «Balandqo'rg'on»dan ko'tarilayotgandek bo'lardi. Ichidagi obkash ko'targan odam shundoq qadam qo'ysayotgan bas, o'zini «Balandqo'rg'on»da ko'radigandek. Yoki Ko'ktoy yugurib egasining oldiga chiqib olsa bo'ladigandek...

Qishlog'imizda it ko'p edi. Kechasi bittasi akillasa, butun qishloq itbozor bo'lib ketardi. Ammo Ko'ktoy uliganda nimagadir itlar jim turishardi. Go'yo qishloqda Ko'ktoydin bo'lak it yo'qdek.

Shunday kunlarning birida Oyto'ra xola o'lib qoldilar. Sal o'tmay, institutda o'qiydigan Ismoiljon degan o'g'li ham orqalaridan ketdi. Ha, «Balandqo'rg'on»da yig'i ovozi tinmay qoldi. Ikkita o'lik chiqsa ham Ko'ktoyni ovozi o'chmadi.

Bir kuni tunda «Balandqo'rg'on» tarafdin gumbirlagan o'q ovozi eshitildi-yu qishloq bir qalqib tushdi. Katakldagi tovuqlar qaqog'lab, itlar chuvvos ko'tarishdi. Biroq, Ko'ktoy jim qoldi. Ertasiga ma'lum bo'ldiki, uni kimdir cho'chqao'q bilan otibdi.

Qishloq huvillab qoldi. Ammo Ko'ktoyni o'limi boshqa bir tashvishni boshlab keldi. Cho'chqao'q ov miltig'idan otilmas ekan. Bundan chiqdi qishloqda berkitib qo'yilgan jangovar qurol bor. Uni urushdan qaytganlar harbiy komissarlikka topshirishmagan. Uylarni tintish boshlandi, Ammam bilan G'anijon amakim shoshib qolishdi. Bizzi udayam uchta cho'chqao'q bor edi. Kosa ichida turardi. Bittasini men

o'rtoqlarimga maqtanish uchun cho'ntagimda olib yurardim. O'qning uchi uchlik, qop-qora, gilzasi oltindek yaltirardi. Orqasida pistoniyam bor edi. Otilganda gilzasi qolarkan-u qorasi uchib chiqib, tekkan narsani teshib o'tar ekan. Ko'ktoy xuddi shunaqa o'q bilan otilgan. Bo'lmasa, sochma o'qqa Ko'ktoy o'lmasakan. Itni joni qattiq bo'larkan.

Ammamlar kosa ichidagi o'qni tomorqaga uloqtirib yubordilar. Keyin amakimdan so'radilar:

– G'anijon, o'q ikkitamidi?

– Yo'q, uchtaidi. Qarang, bolalaringiz olgandir.

Amakim meni eshikka poyloqchi qilib, shoshib taxmondagi ko'rpani qulatdilar. Ammamlar ishlatilmaydigan choynaklarni ag'darib, o'q qidirib ketdilar. Jiyanlarim Yo'ldosh bilan Ergashning cho'ntaklarini titkiladilar. Topolmay jig'ibiyron bo'ldilar. Amakim sandiqning bir tarafini bazo'r surib, orqasidan quvuri ingichka miltiq oldilar. Ko'rib qo'rqib ketdim. Amakim sandiqni joyiga surib, amamga shosha-pisha dedilar:

– Ko'rpalarni

tezda yig'ib qo'ying...

– Sen bolaga

shuni yo'qotgin deb

necha marta aytdim-a.

Oborib Bo'zsuvga

tashlavor sang

o'larmiding. Haliyam

shunday qil. Ana, qopga o'ra, jo'na...

– Nima deyapsiz, opa, qishloq o'rab

olingan-ku. Hech kim uyidan chiqmasin

deyishgan...

– Voy sho'rim qursin... nima qilasan

endi buni?

Amakim nima qilarini bilmay, bir zum

o'ylanib turdi-da, hech kim yo'qmi degandek

menga bosh iring'adilar. Men tashqariga qarab

boshimni sarak-sarak qildim. «Hech kim

yo'q». Amakim miltiqni quvuridan

ushlagancha yerda sudratib hovliga

chiqdilar. Keyin ilkis ko'tarib, qo'ndog'ini

to'nkaga shundoq urdilar, samovar o'tin

bo'ldi-qoldi. Keyin quvurni ko'ylaklari ichiga

tiqib, hojatxonaga o'tib ketdilar. Birozdan

keyin keldilar-da:

– Qo'rqmang, opa, hammasi gatop, -

dedilar. - Ha, siz o'qqi toptizmi?

– Quribgina ketsin, topolmayapman-da

shu!

O'q mening cho'ntagimda edi.

Nimagadir ular mendan gumon qilishmasdi.

Ammam o'qni qidirishdan charchab dedilar:

– Hech yerda yo'g'-u?

– Bollariz yutvornadikani ishqlib? -

kuldilar amakim.

– O'lar... nimalar deyapsan G'anijon...

– Bo'pti, bitta o'q nima bo'pti. Topishsa,

pochchamiz rahmatlik esdalikka obkelganidi

deb qo'ya qolamiz.

G'anijon amakim samovar o'tin bo'lib

ketgan miltiqning qo'ndog'ini urchug'igacha

terib, tandir ichiga tashladilar. Keyin xotirjam:

– Anovi ikkita o'qni nima qildingiz, - deb

so'radilar.

– Otvordim, nima qilardim.

– Qaqqa otvordiyiz?

– Tomorqaga, - dedilar ammam.

– Bu yil och qopmiz-da.

– Nimaga unday deysan, nafasingni issiq qil, uka, - hayron bo'ldilar ammam.

– Yer chopganda, ketmonim pistoniga tegib ketsa, o'laman-ku, opa.

– Ja, topding bahonani.

– Rost-da, hech bo'lmasa, hojatxonaga tashlavor maysizmi, opa.

– Qattan bilay, shoshib qoldim-da, otam.

Ammamlar beshikdagi Rixsi jiyanimni emizgancha gap sotardilar. G'anijon amakim tikka turar, men ochiq eshikdan ko'chaga

## OSMONDAN TUSHGAN OQTOSH

(yoxud jinlar olami)



qarab-qarab qo'yardim. Ammam menga ish buyurdilar:

– Hay, tovuqlarga bir siqim jo'xori sepib qo'y... Sigiram och qoldi! Qachon kelisharkin u zormandalar. Uyda qamalib o'tirovramizmi? Shularni bari Ko'ktoyni otganni jatiga. Ha, otmay otilgurlar-a. Shundoq itni otvorishdi-ya... Qo'llaring singurlar, deb qarq'andilar ammam.

Hujraga kirib, siniq sopol kosada jo'xori oldim-da, daydib yurgan tovuqlarni «tu-tu»lab chaqira boshladim. Hammasidan oldin tojisi qip-qizil, chipor xo'roz yetib keldi. Biz tovuqlarni ko'proq shu xo'rozga ishonib bo'sh qo'yib yuborardik. U tovuqlarga tulki u yoqda tursin, hatto begona odamniyam yo'latmasidi. Begona sharpa sezdi deguncha shovqin ko'tarib, qanotlarini qars-qars urib, patlarini hurpaytirib, tovuqlarni atrofiga yig'ib, «urush» holatiga tushib olardi. Xo'rozimiz judayam kekchi edi. Bir kuni qo'shnimiz Turob aka uyiga o'tib ketayotsa, kayfi bor ekanmi, to'satdan qichqirib, o'takasini yoray debdi. Turob aka erinmay xo'rozni tiriqitib quvibdi. Shu-shu Turob aka uyiga idoradan barvaqtroq qaytsa, «urush» e'lon qilib, uyigacha kuzatib qo'yadi. U kishi buxgaltar bo'lib ishlardilar.

Xo'roz men sepgan donga tumshug'am urmadi. O'zini terib yegan qilib ko'rsatardi-yu, shundog'am yiqilib-surilib qanot qoqib kelayotgan tovuqlarni donlashga chaqirardi. Hovli yuzi oq, chipor tovuqlarga to'ldi. Bitta tepada o'zimiz yolg'iz yashaganimiz uchun kattakka qamamasdan tovuq boqsa bo'lardi. Ammamlarning bevaligi uchun tepamiz tagidan tomorqaga deb yer ajratishgan edi. Ammam ham kelib-kelib cho'chqao'qlarni shu yoqqa uloqtribdilar.

Men xo'rozning don cho'qish o'rniga, kermachog'lik qilib, hali u tovuqqa, hali bu

Erkin MALIKOV

tovuqqa aylanishini tomosha qilib turib, ko'chadagi ikkita shapkalikka ko'zim tushib qoldi. Xayolimga cho'ntagimdagi o'q keldi. Hali uni bekutib ulgurmagan edim. Qarasam, o'choqni oldida turgan ekanman, shapkaliklardan ko'z uzmay cho'ntagimdan oldim-u o'choqqa tashlab yubordim. O'q kulga ko'mildi-ketdi. Keyin «kelishyapti» deb ammamga xabar berdim. O'zim yana o'choq oldiga turvoldim. Ular uyimizga olib chiqadigan so'qmoq boshida nimagadir yurmay turib qolishdi. Orqalaridan partkom etib keldi. Uchovlari turvolib, o'rischalab ancha chug'urlashdi. Pochchamlarning ismini tilga olishdi. Qo'llaridagi qog'ozga bir nimalar yozishdi. Keyin biznikiga kirmay, keta boshlashdi. Men shoshib o'qni yana olmoqchi bo'ldim.

Kosov bilan kulni titkilaganimni bilaman, xuddi kul ichida tuxum yorilganday paqillagan ovoz chiqdi-yu, chotimning orasidan vizillab bir nima o'tib ketdi. Don cho'qilayotgan tovuqlar tumtaraqay bo'lib ketishdi. Xo'roz shunday bir qo'rqinchli ovoz chiqardiki, uni ko'rib hayron qoldim. Xo'rozning tojidor kallasi yo'q, ikki oyoqda dikonglab sakrab yuribdi. Hovli yuzi qon. Qarasam shapkaliklar pusib olib, biz tomonga yugurib kelishyapti.

Ichkariga chopqillab kirib, jon holatda «kelishyapti» deb baqirdim. G'anijon amakim deraza tokchasida o'tirgan ekanlar, lip etib sakradilar-u ko'zdan g'oyib bo'ldilar.

Kimdir eshik tagiga keldi-yu ichkariga kirmay buyruq qildi:

– Ichdagilar tishga chiqig'iz. Bulmasa, bez purudupurejeniya atam...

Hozirgina amakim o'zini tashlab qochgan derazada yana bittasi paydo bo'lib, ichkariga to'pponcha o'qtdi:

– Nu, nu, bistro, bistro!

Qo'lida to'pponchasi bo'lsayam ko'zlari ola-kula edi. Ammamlar Rixsi jiyanimni beshikdan bo'shatib, ikkita jiyanimni ergashtirib tashqariga yurdilar. Deraza ko'zida turgan to'pponchalik lip etib ichkariga sakradi. Taxmonlarni, sandal ichlarini qaradi. Men serraygancha qotib qolgan edim. To'pponchalik mushukka o'xshab hamma yoqni titib tashladi... U bir zumda dahliz-u hujralarimizgacha qarab chiqdi. Bilib turibman, u o'q otgan odamni qidirardi. U hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach, «chiq» degandek yelkamga bir turti.

Ammamlar hovli yuzidagi qonni va bir chekkada cho'zilib yotgan xo'rozimizni ko'rdilar-u, jon-ponlari chiqib ketdi. Partkom hech narsaga tushunmay ko'zining paxtasi chiqib, tinimsiz u yoqdan-bu yoqqa yurardi. Ammam Rixsini menga tutqazdilar-da:

– Otayni og'ziga sendaqa zo'ravonlarni, - deb to'pponchalikka tashlanib qoldilar-u. - Xo'rozimni nima qilib qo'yding, qirilib ketkur... Nimaga otasan, o'qing o'zmay o'lsin seni... Yetimlarimmi uvoli tutsin...

Partkom bilan yana bitta shapkalik o'rtaga tushib, ammamni ajratib olishdi.

Ammamlar ko'zlaridan duv-duv yosh to'kib, ezilib-ezilib yig'lardilar. Qo'rqib ketishgan jiyanlarim ham ammamning etagiga yopishib, dod solishdi. Hovlimiz birpasda qiyomat-qoyim bo'p ketdi.

– Hov, Tursun, aylanay jiyanim, gapga quloq sol. Biz seni uyingga kirmasdan o'tib ketayotgan edik. Shu tomondan birov o'q uzdi axir. Eshityapsanmi, o'q otdi! Shundoq tepamizdan vizillab o'tib ketdi. Shundan keyin orqaga qaytdik. Bu yoqqa chiqsak hammayoq qon, anov yoqda xo'rozing tipirchilab, o'lolmay yotibdi, ha, ishon gapimga, Tursunxon jiyan...


(Davomi bor).



Safar BARNOYEV

## BUYURSIN

Yurtim desa kim  
yulduzi osmonga buyursin,  
Men senga fido  
deguvchi o'g'longa buyursin.  
Dil-dilga yaqin bo'ldi  
qarang, tilda g'ubor yo'q.  
Do'st bo'lsa agar,  
yo'llari bo'stonga buyursin.  
Dunyo biladir necha buyuklarga,  
Vatan bu,  
Zurriyodlari biz  
olim-u dehqonga buyursin.  
Turon elining shafqati  
tarixda ayondir,  
Tarixni tanib turguvchi  
posbonga buyursin.  
Biz birla nafas olguvchi,  
ko'p ro'yi-zaminda,  
Gar xushlamasa topgani,  
shaytonga buyursin.  
Ey shonli elim qadri baland,  
qaddi balandim,  
Ozod bu dunyo madhi-chi,  
dostonga buyursin.



Vatan - hali tug'ilmagan

evaram mulki.

Vatan- mening kimligim.

Vatan- mening xulqim.

«Vatan» she'ridan.

Mustaqillikning mardona kuychisi, orzulari cheksiz, o'z ovozigga ega bo'lgan sevimli yozuvchi va shoir Safar Barnoyev «Gulxan» jurnalining Bosh muharriri bo'lib umrining oxirgi daqiqalarigacha sadoqat bilan xizmat qildi. Hamisha «Gulxan» haqida fikr yuritarkan, albatta

## BOLALAR

Bolalar, biz sizni tog'imiz deymiz,  
Erta gullaydigan bog'imiz deymiz.  
Biz siz deb yashaymiz, avval-u oxir,  
Sizniki, bori-yu yo'g'imiz deymiz.  
Sizni butun ko'rsak, bag'rimiz butun,  
Oqar daryolar-u bahrimiz butun.  
Siz to'lib-toshsangiz, ko'chamiz to'liq,  
Qishlog'-u, dala-yu, shahrimiz butun.  
Sizga ishonamiz ostonamizni,  
Kulib oching deymiz bu xonamizni.  
Mehnat o'ldirmaydi ota-onani,  
Faqat siz to'ldirmang paymonamizni.  
Ertaroq qarisak, biling, siz sabab,

Dunyo zavqlariga etakni qoqib,  
Bori shumi, desak biling, siz sabab,  
Sizni deb yashaymiz har bir daqiqa,  
Daqiqa omonat, biling haqiqat,  
Sochga oq tushdimi, tish ham tushadi,  
Armon, bobolardan qolgan vasiqa.  
Bolalar, siz bizning chirog'imizsiz,  
To'maris, Muqanna, Shirog'imizsiz.  
Yo'q esa bir umr javob izlagan,  
So'roq bo'lib ketmang, so'rang dunyoni,  
Dunyolar ichiga o'rang dunyoni.  
Faqat dunyo bo'ling, dunyo deb faqat,  
Quritmang qalbdagi nurni, ziyoni.

# VATAN - HALI TUG'ILMAGAN EVARAM MULKI

uning yonida hamkori «Tong yulduzi»ni eslamay qolmasdi.

«Gulxan»ni o'qiysizmi, «Tong yulduzi»ga obuna bo'lasizmi, bundan qat'iy nazar, sizga aytadigan o'z istagim bor.

## Esda tuting:

O'zbekistonimizga bugun kitobiy qahramonlar emas, haqiqiy mardlar, vatanparvarlar kerak. Kelajagi buyuk davlatning ertangi qo'riqchilari, dunyoga tanituvchilari Siz bo'lasiz.

Faqat bir narsani unutmang, «Tong yulduzi» yangi kundan darakchi bo'lib

xonadonlaringizga kirib borsa, «Gulxan»ning shu'lasi ham yurgan yo'lingizni, ma'naviy olamingizni yoritishga kafolat beradi.

Yurtimizda bog'cha, maktab, kollejlitseylardan to oliy o'quv yurtlarigacha bilimga chanqoq, o'qimishli nabiralarimiz kun sayin ko'paymoqda.

Shu sababli, quvonchim ichimga sig'may Safar Barnoyevning asarlaridan sizlarga hadya qilayapman.

**Malika BARNOYEVA**  
adabiyotshunos, shoirning rafiqasi.

## AZIZ O'QUVCHI!

O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi Respublika ta'lim Markazi «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati, «Tong yulduzi» gazetasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat teleradiokompaniyasi, «DOSNET» internet markazi va xususiy tadbirkor SH. Sariqovlar hamkorligida o'tkazilgan «Iqtisodiyot saboqlari» 2004-2005 - yilgi tanlovining sirtqi bosqichi nihoyasiga yetdi.

Quyida biz tanlov sirtqi bosqichi g'oliblarining ro'yhatini bermoqdamiz. Nomlari e'lon qilingan o'quvchilar Toshkent shahriga tanlovning final bosqichiga qatnashish uchun hamda tashkilotlar va homiyar tomonidan ta'sis qilingan mukofotlarni olish uchun taklif qilinadilar. O'tgan sonda berilgan tanlov g'oliblari ro'yxati hafta o'tib, kelgan xatlar hisobiga yana ko'paydi. Shuning uchun ishtirokchilarning umumiy ro'yxatini to'laligicha e'lon qilmoqdamiz.

## «IQTISODIYOT SABOQLARI» TANLOVI YAKUNLANDI!

maktab;

17. Saodat To'lanova - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30- litsey-internat;

18. Bekpo'lat Sadirov - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30- litsey-internat;

19. Eldor Umarov - Samarqand viloyati, Paxtachi tumani, 15- maktab;

20. Qosimbek Xoldaraliyev - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30- litsey-internat;

21. Ayjan Chirlasheva - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30- litsey-internat;

22. Shahnoza Ernazarova - Samarqand viloyati, Paxtachi tumani, 15- maktab;

23. Jamshid Ernazarov - Surxondaryo

viloyati, Uzun tumani, 3- maktab;

24. Umida Eshonqulova - Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, 39- maktab;

25. Gulzina Yuldasheva - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30- litsey-internat;

26. Alima Qambarova - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30- litsey-internat;

27. Iroda Qambarova - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30- litsey-internat;

28. Otabek Qurbonov - Buxoro

G'OLIBLARNING  
KENGAYTIRILGAN RO'YXATI:

1. Shahnoza Abdiyeva - Navoiy viloyati Xatirchi tumani, 22- maktab;

2. Feruza Aliboyeva - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30- litsey-internat;

3. Anora Bekmurodova - Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani, Ahmad Donish nomli maktab;

4. Muslimbek Davlatov - Andijon viloyati, Qorasuv shahar, 19- maktab;

5. Davron Jumayev - Samarqand viloyati, Paxtachi tumani, 15- maktab;

6. Feruz Jo'rayev - Buxoro viloyati, Jondor tumani, 20- maktab internat;

7. Sharofiddin Rasulov - Surxondaryo viloyati, Uzun tumani, 3- maktab;

8. Sayyora Murodova - Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, 39- maktab;

9. Sanjarbek Nabiye - Farg'ona viloyati, Bag'dod tumani, 2- maktab-litsey;

10. Suxrob Rajab - Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, 4- maktab;

11. Nasiba Rahimova - Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, 39- maktab;

12. To'lqinjon Rahimov - Farg'ona viloyati, Bag'dod tumani, 2- maktab-litsey;

13. Komil Rahmonov - Buxoro viloyati, Jondor tumani, 20- maktab-internat;

14. Najmiddin Ro'zmatov - Farg'ona viloyati, Bag'dod tumani, 2- maktab-litsey;

15. Ismoil Saidov - Surxondaryo viloyati, Uzun tumani, 3- maktab;

16. Ko'charboy Toshmirzayev - Surxondaryo viloyati, Uzun tumani, 3-

viloyati, Jondor tumani, 20- maktab-internat;

29. Gulzara G'apparova - Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30- litsey-internat;

30. Muhayyo Hasanova - Samarqand viloyati, Paxtachi tumani, 15- maktab;

G'oliblar uchun ajratilgan  
mukofotlar:

1-o'rin - televizor

2-o'rin - DVD pleyer

3-o'rin - VCD pleyer

Rag'batlantiruvchi mukofotlar.

G'oliblar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi Respublika ta'lim Markazi, «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati, «Tong yulduzi» gazetasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat teleradiokompaniyasi va «DOSNET» internet markazi tomonidan ta'sis etilgan fahriy yorliqlar va maqto'v yorliqlari bilan taqdirlanadilar.

## TASHKILOTCHILAR:

Viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari rahbarlaridan nomlari qayd etilgan o'quvchilarga final bosqichda qatnashish uchun zarur tashkiliy choralar ko'rishni iltimos qiladilar.

Biz sirtqi qism g'oliblarini shu yilning 25- oktabr kuni soat 10:00 da Navoiy ko'chasi «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati Markaziy kengashi binosining kichik majlislar zalida kutamiz.

**Manzil:** Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 11, «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati Markaziy kengashi.

**TONG**  
yulduzi

O'zbekiston Respublikasi  
bolalari va  
o'smirlarining gazetasi

**BOSH MUHARRIR:**  
Umida  
ABDUAZIMOVA

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Turobjon JO'RAYEV,  
Shuhrat AHMEDOV,  
Botir UBAYDULLAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(*Bosh muharrir  
o'rinbosari*),  
Abdusaid KO'CHIMOV,  
Nurxon NAFASOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
022-raqam bilan  
2003-yil 11-dekabrda  
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir  
«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa  
ijodiy uyi.  
Gazeta  
«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa  
ijodiy uyi  
kompyuter bo'limida terib  
sahifalandi va  
chop etildi.  
Gazeta haftaning dushanba  
kuni chiqadi.  
Hajmi A-3,  
2 bosma taboq.  
Adadi - 13857  
Buyurtma N: J 1704

Dizayner va sahifalovchi:  
**Fazliddin  
SHAYADGAROV.**  
Navbatchi:  
**Ozoda  
TURSUNBOYEVA.**

Rassom:  
**Nodira MIRZAYEVA.**

Manzilimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
tong\_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10  
144-63-08

Tel./ faks:  
(99871) 144-24-45

## YOZGIM KELAVERADI



Sinfimizdagi barcha o'quvchilar "Tong yulduzi"ga obuna bo'lishgan. Chunki undagi maqola-yu topishmoqlarni, tengdoshlarim yozayotgan she'r-u ertaklarni o'qib mazza qilamiz. Men ham rasm chizishga, she'r yozishga juda-juda qiziqaman. Shu kunlarda zamonaviy ta'mirlangan, o'quv qurollari bilan ta'minlangan va jihozlangan maktabimizni bir ko'rsangiz edi. Har kuni maktabga kelarkanman, shunday maktabda, jonkuyar ustozlar qo'lida o'qiyotganimdan faxrlanib, qalbim g'urur va iftixorini aziz gazetamga yozgim kelaveradi.

Mamlakat ABDUG'ANIYEVA,  
Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumanidagi  
10-umumta'lim maktabining 6-"B" sinf o'quvchisi.

### Dunyo darchasi

## O'QUVCHILAR 80 SOAT VAYRONALAR OSTIDA





Tabiiy ofatlar oldida insoniyat naqadar ojizligini oynai jahon orqali berilayotgan yangiliklar misolida ham ko'rish mumkin. 8-9- oktabr kunlari Pokistonda 7,6 balli yer silkinishlari ro'y berib, minglab kishilar halok bo'ldi. 2,5 million kishi boshpanasiz qoldi. Bu ko'rsatkichlar soat sayin o'sib bormoqda.

"Janubiy Osiyoda ro'y bergan zilzilalar oqibatida halok bo'lganlar soni 40 mingdan ortishi mumkin", deb xabar beradi Pokistonning «The News International» gazetasi. Xalqaro hamjamiyat tashkilotlari suv, oziq-ovqat va tibbiy vositalar bilan ta'minlash uchun yordamga oshiqmoqda. Pokiston rahbariyati 100 yilda bir bo'lgan bu voqeani tarixdagi eng dahshatli fojia demoqda.

Biroq, vayronalar ostidan tirik insonlarning topilishi ham mo'jizaday go'yo. Deyarli uch sutka, ya'ni, 80 soat deganda yer bilan bitta bo'lgan maktab qa'ridan o'qituvchi ayol va o'quvchilar qutqarib olindi. "Faqatgina yaratganning inoyati ila tirik qoldik", deydi o'qituvchi. "Endi umrimning oxirigacha Allohga yanada ko'proq toat-ibodat qilaman".

Toshkent shahar,

Yakkasaroy tumanidagi 119 - maktab o'quvchisi Dilrabo DO'STQOBILOVA chizgan ushbu rasmlardagi 8 ta farqni toping.



### MUSTAQILLIK

Vatanim O'zbekiston,  
Vatanim O'zbekiston,  
Yangi kuning muborak!  
Tan oldi seni jahon,  
Yaxshi kuning muborak!  
Xumo qushdek parvoz qil,  
Ko'kka ko'tar qaddingni.  
Yuksaklarga sen intil,  
Yerga urma qadringni.

### GULLARDEK OCHILGUM

Gullar chaman ochildi,  
Hidi har yon sochildi.  
Chiqib keldi quyoshjon,  
Nurin sochdi bir jahon.  
Xushbo'y hidin taratib,  
Mayin shabboda yeldi.  
Gulga havasim kelib,  
Guldek ochilgim keldi...



Shahlo JAPPAROVA,  
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi  
26 - o'rta maktabning 3 - sinf  
o'quvchisi.

### USTOZIMGA TILAKLARIM

Ustozni qanchalar e'zozlasak oz,  
Ta'rifin keltiring chin dildan yona.  
Yurakdan mehr-la boqishar bizga,  
Shundanmi, nomlari ikkinchi ona.  
Deydilar: "Ulug'dir ustoz otangdek",  
To abad haq erur bu naql bizga.  
Doim kamol tilab duo qilishar,  
Duosi hamrohdur har o'g'il-qizga.  
Uning har bir so'zi dilni yashnatar,  
Ibratdir bizlarga bosgan yo'llari.  
Dard ko'rmasin, deymiz biz chin yurakdan,  
Ilk harf tanitgan oltin qo'llari.  
Ustoz, sizning uchun bo'lay ko'zmunchoq,  
Niyatim - ko'z tegib qolmasin sizga.  
Kamol topib, shogirdlik burchini o'tash,  
Nasib qilsin meningdek Dilrabo qizga.

Dilrabo HAMIDOVA,  
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanidagi  
1 - ixtisoslashgan maktab-internatining  
8 - sinf o'quvchisi.